

## HARBIY XIZMATCHILARNING INDIVIDUAL XUSUSIYATLARINI O'RGANISHDA OFETSERLARNING MAJBURIYATLARI VA VAZIFALARI

*Egamberdiyev Kamoliddin Ahrorjon o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich kursanti.*

*Sotvoldiyev Davlatjon Faxriddin o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich kursanti.*

*Sayilxonov Nurmuhammad Shavkat o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich kursanti.*

*Xolov Jamshid Egamberdi o'g'li*

*Farg'ona davlat universiteti harbiy ta'lim fakulteti 1-bosqich kursanti.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Harbiy xizmatchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda ofetserlarning majburiyatlari va vazifalari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Harbiy xizmat, askar, individual xususiyat, ofetser, harbiy qism.

Harbiy xizmat — fuqarolarning qurolli kuchlar harbiy qismlari va muassasalarida harbiy majburiyatni bajarishdan iborat davlat xizmati turi (qarang Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat). Harbiy xizmatchilarning individual xususiyatlarini o'rganishda ofetserlarning majburiyatlari va vazifalari. O'z qo'l ostidagilarni bilish, ularni muntazam o'rgana borish har bir komandirning harbiy nizomlarda yozib qo'yilgan majburiyatidir. Busiz hamkorlikdagi faoliyatni amalga oshirish, ularda harbiy xizmat uchun zarur bo'lgan sifatlarni tarbiyalash tarbiyalash mumkin emas. Shaxslardagi eng muhim ijobiy va salbiy xususiyatlarni ajrata olish maxoratini egallash komandirlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ofetser askardagi xususiyatlardan o'zi tayanishi lozim bo'lgan birontasini ajratib oladi: kim uchundir xarakter sifatlari, boshqa bironda qobiliyat, uchunchi bir kishida esa temperament shunday asos azifasini o'tashi mumkin. [1] Askar xulq-atvorini bashorat (prognoz) qilishda komandir shularga tayanadi. Shaxsdagi yashirin, har doim ham ko'zga tashlanavermaydigan sifat va xususiyatlarni faoliyat jarayonida yuzaga chiqarish mumkin. Jangovor va ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik mashg'ulotlari, sport musobaqalari hamda badiiy havaskorlik to'garaklarida askarlardagi tashirin qobiliyatlarni yuzaga chiqarish imkoniyati mavjud. Shuni aytib o'tish kerakki, hamma harbiy xizmatchilarga nisbatan ulardagi yakka xususiyatlarni o'rganishning umumiy usullari yo'q. Yakka tarbiya har doim muayyan shaxsga nisbatan muayyan sharoitlarda amalga oshiriladi. Harbiy xizmatchilarni o'rganishda bo'linma komandirlari tomonidan har bir askarga nisbatan yuritiladigan "Pedagogik kundalik" lar katta ahamiyatga ega. [2] Komandirlar ushbu

kundaliklar muayyan bir askarning faoliyatini kuzatishdan olgan taassurotlarini, undagi muhim ahamiyatga bo'lgan malumotlarni yozib boradilar. Harbiy xizmatchilarni baxolaganda bir yoqlamalikka yo'l qo'yib bo'lmaydi. Bazan shunday bo'ladi, bazi bir komandirlar askarlarni ikki qutbga-oqqa va qoraga ajratishadi. Aslida bu ikkala toifalar orasida ham malum bir guruhlar bo'ladi. Askarlardagi u yoki bu sifatlarni o'rganishda komandir quyidagi talablarni nazarda tutishi lozim:

- xar bir askarda to'laonli shaxs sifatidsa yondashish;
- har bir shaxs rivojlanuvchi, o'zgaruvchi tizim ekanligini yodda tutish;
- inson va uning faoliyati haqidagi har qanday xulosa nisbiy ekanligini yodda tutish va unutmashlik.

Harbiy faoliyat va harbiy jamoalarning o'ziga xos xususiyatlarini etiborga olgan holda harbiy xizmatchilarning bo'linmalardagi xulq-atvorlari bir nechta tiplarga bo'lish mumkin. Faoliyatini to'la-to'kis topshirilgan ishni, vazifani bajarishga qaratadi. U faol, mehnatsevar, tashabbuskor, qaror qabul qilishda mustaqil. Jamoa vazifalarini bajarish faoliyating asosiy mazmuni hisoblanadi. Atrofdagi kishilar bilan bo'ladigan munosabatlarga kam etibor beradi. Harbiy kasbning qanchalik sharafliligi va mas'uliyatli kasb ekanligi barchamizga ma'lum. [3] Mana shu mashaqqatli kasb haqida o'quvchilarga tushunchalar berish, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash va ularni harbiy xizmatga tayyorlash chaqiriqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisining oldida turgan ulkun vazifalaridan biri hisoblanadi. Umuman olganda, harbiy kasbga yo'naltirishda individual psixologik xususiyatlarni hisobga olish, o'quvchi o'zining qiziqishi, xohishi, qobiliyatini va intilishlarini ro'yobga chiqarishga, o'zi uchun eng maqbul yo'lni ongli va mustaqil ravishda tanlash imkoniga ega bo'lishi uchun unga ko'maklashish lozim. Harbiy pedagogika va psixologiyada o'quv va kasbiy faoliyatning motivlari tarkibi yetarlicha ishlab chiqilgan. Lekin o'quvchilar va ishlayotgan yosh mutaxassislarning ijtimoiy-kasbiy yo'naltirish bilan bog'liq kasbiy motivatsiyaning mazmuniy tomonlari yetarlicha o'rganilmagan. O'quvchilarni harbiy kasbga yo'naltirishda birinchi navbatda ota-onaning roli katta ahamiyat kasb etadi. Chunki, ota-ona o'z farzandining qiziqishlari, qobiliyatlari va xatti-harakatlari qanday ekanligini juda yaxshi biladi, farzandining o'qituvchisi bilan o'zaro aloqada bo'ladi va qaysi kasbga moyilligi borligi haqida ma'lum darajada ma'lumotlarga ega bo'ladi. Harbiy kasbga bo'lgan qiziqish o'quvchilarda yoshlikdan shakllanib keladi. [4] Ammo, akademik litsey va kasb-hunar kollejini tamomlagan o'quvchilar kasb tanlashda qiyinchilik va to'siqlarga duch keladi. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safida xizmat qilish har bir o'smir va o'spirin yigit orzusi va Vatan oldidagi burchi hisoblanadi. Shu nuqtai-nazardan kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarda bu haqda boshlang'ich bilimlar berib boriladi. Harbiy ta'lim o'qituvchisi talabalarni harbiy kasbga qiziqish uyg'otishda katta rol o'ynaydi. Temperament odamning ijtimoiy ob'ektlarga nisbatan «sezgiriligini» tarbiyalaydi, professional mahorat va kasb

malakasining oshishiga yordam beradi. Demak, bu individual xususiyatga ega bo'lgan jarayon hisoblanadi. Xarakter xususiyatlari o'zgaruvchan bo'lishiga qaramay, har bir alohida shaxs va yaxlit millat o'ziga xosligini ifodalovchi shunday barqaror sifatlar bo'ladiki, ular yillar, hattoki, asrlarga ham dosh beradi. Masalan, o'zbeklarning samimiyligi, mehmondo'stligi, ibo, sharmi-hayo, kamtarlik, mehnatsevarlik va boshqa sifatlar avloddan-avlodga o'tib kelmoqda. Bu sifatlar xalq ma'naviyatiga aylanib qolgan va o'zbekning o'zligini anglatadi. Harbiy xizmat davomida askarlarning shaxsiy individual psixologik xususiyatlaridan kelib chiqib, ular bilan ishlash maqsadga muvofiq. Ayniqsa, ularning qobiliyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish muvaffaqiyat kaliti hisoblanadi.

### **Xulosa:**

Shu nuqtai nazardan chaqirqqacha harbiy ta'lim o'qituvchisi o'z talabalari qanday temperament tipiga mansub ekanligi, xarakterlari va qobiliyatlarini aniqlab olishi va shulardan kelib chiqib ta'lim jarayonining sifatini oshirishi lozim. Qobiliyat tug'ma yoki hayot davomida o'zlashtirilishi mumkin. O'zida tug'ma qobiliyat yoki layoqatni sezgan inson o'zi ustida ishlashi lozim. Chunki, tug'ma qobiliyatning shakllanishi ortirma qobiliyatga qaraganda osonroq kechadi. Har bir inson qaysidir qobiliyat bilan tug'iladi. Demak, qobiliyat ustida ishlab uni iste'dod darajasiga yetkazish har bir shaxsning o'z qo'lida.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. G'oziev E.G. Umumiy psixologiya. Toshkent. 2007.1-2 kitob. [1]
2. Erkaboyev.O.M. Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati.Toshkent-2020[2]
3. Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash»o'quv dasturi 2017 y.[3]
4. «O'smirlarni chaqirqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 2014 [4]